

## JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI O'RNI

Jo'raqulova Mashhura O'rol qizi

O'zJOKU,

Xalqaro va audiovizual jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi.

+998-88-455-40-41. [mashhuraqoshboqova8@gmail.com](mailto:mashhuraqoshboqova8@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14759466>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Munavvar qori Abdurashidxonov va "Chig'atoy gurungi" birlashmasining til, alifbo va ta'limga bo'lgan qarashlari, islohatlari yoritilgan. Yangi usul maktablarining ochilishi, darslik va qo'llanmalarning yaratilishi, shuningdek Turkiston o'lkasidagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat ham tilga olinadi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, jadid, til, muktab, "Chig'atoy gurungi", matbuot, islohat.

## THE ROLE OF NEW ENLIGHTENERS IN THE DEVELOPMENT OF THE

### UZBEKISTAN LITERARY LANGUAGE

**Abstract.** This article covers the views of the Uzbek enlighteners Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Munavvar qori Abdurashidkhanov and the "Chigatoy Gurungi" association on language, alphabet and education, and their reforms. The opening of new method schools, the creation of textbooks and manuals, as well as the political and social situation in the Turkestan region are also discussed.

**Keywords:** spirituality, new, language, school, "Chigatoy Gurungi", press, reform.

## РОЛЬ НОВЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНСКОГО

### ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды и реформы узбекских просветителей Абдурауфа Фитрата, Ашурали Зохирий, Мунаввара кори Абдурашидханова и общества «Чигатой Гурунги» по вопросам языка, алфавита и образования. Упоминается также об открытии новометодных школ, создании учебников и учебных пособий, а также о политической и социальной ситуации в Туркестанском крае.

**Ключевые слова:** духовность, новый, язык, школа, «Чигатай Гурунги», пресса, реформа.

## KIRISH

Ma'rifatparvar o'zbek jadid namoyondalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov mafkuraviy g'oyalari va islohatlari bilan yurt istiqboli uchun kurashgan siymo sifatida tarixda qoldi. Diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy va ijtimoiy-siyosiy mavzular bilan ham yaqindan tanish bo'lgan Munavvarqori til va alifbo masalalariga alohida yondashdi.

Turkiy tillardan tashqari rus va fors tillarini ham mukammal egallagan Munavvar qori o'lkadagi mustamamlakachilik va ruslashtirish siyosati, madaniy jihatdan ortda qolyotgan xalq va yurt kelajagi haqida qayg'urardi. 1901-yilda Turkistonda birinchilardan bo'lib Qrimda ma'rifatparvar Ismoil Gaspirali tomonidan joriy etilgan "usuli jadid", "usuli savtiya"ga asoslangan jadid maktabini ochishga tuyassar bo'ldi. Yangi usul maktabi uchun bir qancha dastur va darsliklar yaratdi. "Adibi avval" - Alifbo darsligi (1907), "Adibi soniy" – O'qish kitobi (1907) va "Til saboqlari" kitoblari shular jumlasidandir.

"Chig'atoy gurungi" nomli til va imlo masalalariga chuqurroq e'tibor qaratgan adabiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi tashkilot rahbari Abdurauf Fitrat millat kelajagi uchun qayg'urdi. Amaldagi arab alifbosi savod chiqarish uchun qiyinchilik tug'diryotgani sababli uni isloh qilish masalalari bilan shug'ullandi. Shu tariqa "Chig'atoy gurungi" a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar.

## ISLOHAT VA NATIJALAR

Barchamizga ma'lumki, jadidchilik eng avvalo ma'rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo'lgani uchun jadidlar o'z faoliyatlarini yangi usul maktablari ochish, o'qitish uchun yangi darsliklar tayyorlash va davriy matbuotda doimiy ravishda faol bo'lib materiallar chiqarib turishdan boshlaydilar. Jadidlarning til, imlo, alifbo masalalariga qarshlari ularning mana shu harakatlarida ham yorqin aks etgan edi. Ular milliy matbuot, yangi usul maktablarini ochish, avvalombor, adabiy tilni shakllantirish orqali erishish mumkinligini chuqur tushunib yetgan edi.

Biroq, Duma majlisining g'ayrielatlarning ta'lim tili haqidagi hujjatda Turkiston o'lkasida "adabiy til me'yori" yo'qligi uchun maktablarda ta'lim rus tilida olib borilishi belgilandi. Bu qaror esa ma'rifatparvar jadidlarning noroziliklariga sabab bo'ldi. Shunday ijtimoiy-siyosiy vaziyatda Ismoil G'aspralining "Chig'atoy tili" sarlavhali maqolisi "Tarjumon" gazetasining 1911-yil 4-mart sonida bosilib chiqdi. Maqolada noroziliklar quyidagicha bayon qilingan edi: "Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo qit'alarining shevalari eski chig'atoy shevasidir. Bu sheva adabiy o'ldug'i jahona ma'lumdur. Hattoki, turk shevai adabiyalarining eng qadimi va mabdal o'ldug'i lisoniyun oldinda masdaqdir. Taftazoniyalar, Ahmat Yassaviylar, Ali Qushchi, Alisher Navoiy va shoirlai vujudga keltirmush Turkiston nechuk "tilsiz", "adabiyotsiz" o'linur?" Til va imlo masalalari bo'yicha aynan mana shu davrlarda nafaqat "Tarjumon", balki boshqa mahalliy gazetalarda ham bahs va munozaralarga, chaqiriqlarga sabab bo'lgan ko'plab maqolalar e'lon qilinib turgan.

Yana bir yorqin misol tariqasida Abdulla Avloniyning – "Biz, turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursin, kundan kun unutmak va yo'qotmadadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiyl, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadir.

Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdir. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilib, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur” degan fikrlari orqali ham ko‘rshimiz mumkin. [Abdulla Avloniy, 1998: 60].

Chor Rossiyasi bosqinligidan keyin o‘lkada yuz beryotgan demokratik o‘zgarishlar natijasida alifbo va imloda bir qancha islohatlar o‘tkazildi. Mana shunday ijtimoiy-siyosiy vaziyatda ta’lim tizimini isloh qilish kerak edi. Buni avvalombor tez va oson savod chiqarish tizimini yaratishdan boshlashni anglagan bir guruh jadidchilar bu ishga jiddiy kirishidi. Natijada Toshkentga qaytgan Fitrat 1919-yilda madaniy-ma’rifiy sohada faoliyat yuritilishi rejalashtirilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotini tuzdi. Uning atrofida Cho‘lpon, Munavvar qori, Ashurali Zohiriy, Zaki Validiylar jamlangan edi. Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” birlashmasi madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan. Jamiyat a‘zolaridan Qayum Amazon, Elbek, Shokirjon Rahimi, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi”ning “Imlo to‘dasi”da ish olib borganlar. Yangi imlochilar o‘zları isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e’lon qilib, targ‘ib qila boshladilar. Ikki oylik o‘qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o‘rgata boshladilar. “Chig‘atoy gurungi” “imlo to‘dasi”ning o‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi – “Bitim yo‘llari” nomli bitikchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko‘pchilik yosh ziyorilar, o‘qituvchilar “Chig‘atoy gurungi” imlosini yoqladilar va ularga ergashdilar. [Xalilova, 2020: 9].

“Chig‘atoy gurungi” vakillari adabiy til va yozuv masalasida asosan o‘zbek millati manfaati nuqtayi nazaridan ish ko‘rdilar. Aniqrog‘i, ular yangi o‘zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildilar. O‘zbek adabiy tilini Amir Temur, Alisher Navoiy davridagi mavqeyiga, shon-shavkatiga qaytishini, boshqa turkiy tillar uchun ham o‘rnak adabiyot, namuna adabiy til holiga ko‘tarishni istadilar. Faqat buni yangi tarixiy sharoitda, o‘zbek millati nomi bilan bog‘liq ravishda vujudga chiqarmoqchi bo‘ldilar.

Madaniy-ma’rifiy ruhdagi bu tashkilotning asosiy maqsadi adabiy til va imlo me’yorlarini shakllantirish ekanligini Abdurauf Fitratning ushbu fikrlari orqali anglash mumkin: “Chig‘atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o‘rinni tutg‘ondur. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliqlari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar. Chig‘atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo‘lg‘onlig‘in qabul etmak mutlaqo lozimdir. Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o‘rinda turg‘onidan, tilimizningda turk tillari orasida yuqori mavqe tutg‘onini chiqarg‘on kabi bo‘ldim” [Tog‘ayev, 2023: 74].

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini mukammal bilgan Fitrat arab yozuvini isloh qilish muhimligini birinchilardan bo‘lib tushunib yetdi. Negaki, amaldagi arab yozushi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini o‘zida to‘la ifodalay olmas edi va bu imloda, savod chiqarishda ko‘p qiyinchilik hamda murakkabliklar keltirib chiqarar edi. Bu xususda Fitrat shunday deydi: “Boshqalarning alifbolari, yozuvlari tartibli, intizomli, qulay. Bizniki tartibsiz, buzuq ham qiyin!” [Qurbanova M, 1996: 20].

Fitrat boshliq “Chig‘atoy gurungi” a’zolari tashabbusi va ularni qo‘llagan Maorif komissarligi taklifi bilan Toshkentda 1921-yilning boshida “Til va imlo quriltoyi” bo‘ldi. Qurultoya eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sinqilik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, “Chig‘atoy gurungi”ning imlo asoslari qabul qilindi. Qurultoya imlo masalasida ziyorolar o‘rtasida fikriy ajralish bo‘ldi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o‘rtaga chiqqan chog‘dan (1919-yildan) muhokama qilinib kelmoqda edi. Munavvar qori va Ashurali Zohiriya o‘z tarafdarları bilan yangi imloga qarshi bo‘ldilar. Turkiy xalqlar uchun o‘rta bir imlo - yagona yozuv fikrini yoqlagan bu zotlarning pozitsiyasi Turkistonda kechayotgan madaniy, siyosiy voqyealar jarayoni bilan bog‘liq edi. Ayni chog‘da yangi imlochilar ilgari surgan alifbo-imlo tamoyillarida ayrim kamchiliklar mavjud ediki, buni vaqtida Ashurali Zohiriya, hatto bir muddat “Chig‘atoy gurungi” a‘zolaridan bo‘lgan Shorasul Zunnun matbuotda ko‘rsatib bergandi. [Tog‘ayev, 2023: 74].

## XULOSA

Lotin yozushi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi va imlosini yaratishda Fitrat, Cho‘lpon, Zohiriya, Munavvarqori, Elbek kabi jadidchi olim va yozuvchilarning o‘rni katta. Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” a‘zolarining harakat va faoliyatları bilan 1919-yildan alifbo-imloni isloh qilish harakati boshlangan edi. 1921-yilga kelib arab alifbosi rasman isloh qilindi. Bu islohat o‘z davrining o‘qish-o‘qitish ishiga, savodxonlikni oshirishga katta yordam berdi. 1929-yil Samarqandda o‘tkazilgan Respublika til-imlo konferensiyasida “O‘zbek adabiy tili to‘g‘risidagi qaror”, “Imlo qarori” va “Termin to‘g‘risidagi qaror”lar qabul qilindi, shu tariqa Respublikada adabiy til va imlo muommolari bir darajali hal etildi. Jadidlar dastlab arab alifbosini isloh qilish, so‘ngra lotin alifbosi asosidagi yangi o‘zbek alifbo va imlo me’yorlarining belgilanishida, adabiy til me’yorlarining shakllanishida samarali islohatlar o‘tkazgan ma’rifatparvarlar sifatida tarixda qoldi.

**REFERENCES**

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq"/Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998, 60 b.
2. Tog‘ayev To‘lqin. O‘zbek jadid yetakchilarining til va yozuv masalalariga munosabati, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, dekabr.
3. Xalilova Mahfuza. Zamonaviy o‘zbek tilining alifbo va imlo muommolari, 2020, 9 b.
4. Qurbanova M, Fitrat-tilshunos, 1996, 20 b.